



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 5

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





O'QUVCHILARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY ERTAKLARNING TARBIYAVIY IMKONIYATLARI

Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna

FarDu o'qituvchisi, PhD, +998907830401

Madaminova Sarvigul Anvarxo'jayevna

FarDU magistranti,

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarda kreativlikni rivojlantirishning mohiyati va ahamiyati, kreativlikni rivojlantirishda ertaklarning o'rni haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, ertaklar va uning boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasidagi ahamiyati, ertaklarning tarbiyaviy imkoniyatlari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ tasavvurini boyitishning samarali usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ertak, boshlang'ich sinf, kreativ tasavvur, milliy qadriyat, metodika, tarbiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются сущность и значение развития творческих способностей учащихся, роль сказок в развитии творческих способностей, а также сказки и их значение в воспитании учащихся начальной школы, эффективные методы развития творческого воображения учащихся начальной школы посредством использования воспитательного потенциала сказок.

Ключевые слова: сказка, начальная школа, творческое воображение, национальные ценности, методика, образование.

Abstract: This article discusses the essence and importance of developing creativity in students, the role of fairy tales in developing creativity. It also discusses fairy tales and their importance in the education of primary school students, and effective methods for enriching the creative imagination of primary school students through the educational potential of fairy tales.

Keywords: fairy tale, primary school, creative imagination, national values, methodology, education.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarda kreativlikni shakllantirish va shu bilan birga ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish eng muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda ertaklar orqali tarbiya berishning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ertaklar nafaqat axloqiy-me'yoriy tushunchalarni shakllantiradi, balki bola tafakkurining ijodiy rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarda nafaqat bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, balki ularning ma'naviy olamini boyitish, milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasida e'tirof etilgan[1].

Muhokama va natijalar. Kreativlik (inglizcha "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarini ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning





tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Bolada kreativlik qobiliyatini yoshlikdan shakllantirish pedagogning mahoratiga bog'liq. Ya'ni pedagogning o'zi kreativ fikrlasa, har bir bolaning fikrini individual tinglasa, bolani qiziqishlarini inobatga olgan holda ta'limni tashkil etsa, kreativlik ham o'z-o'zidan shakllanib boradi. Shu o'rinda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash, ularni nazardan chetda qoldirmaslik ham muhim sanaladi.[2] Kreativlik - bu madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakllanish jarayonida namoyon bo'ladigan shaxsning shaxsiy sifati (fazilati)dir.

Kreativlik - bu insonning shaxsiy xususiyati bo'lib, uning o'z-o'zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog'liq.

Ertaklar yaxshilikka yetaklar, ha albatta, bu gaplarda jon bor, haqiqatdan ham ular bizga yaxshilik tomonida xizmat qiladilar. Bolalar dunyoqarashini, so'z boyligini oshiradi shu bilan birgalikda ekologiya va atrof muhitni asrash, egri va to'g'rini ajratish, fikr yuritish, taqqoslash, oq va qorani ajratishni va shunga o'xshash bir qancha foydali ma'lumotlar bilan bolalarimiz tarbiyasiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi, bu sanab o'tilgan hislatlar faqatgina dengizdan bir tomchi xolos. Ertaklar bolalar o'y-xayollari bilan bog'liq, shu sababdan ertaklar yordamida berilgan tarbiya, bolaning qon-qoniga singib ketadi. Ertak o'qib berish, bolaning ilk kunlaridan boshlansa, bolada atrof muhitiga qiziqish ortadi, izlanuvchan va bilimga chanqoq bolib voyaga yetadi, shu bilan birga biz farzandlarimizni hayotini zaharlanishdan oldini olgan bo'lamiz.[3]

Ertak terapiyasi - ertaklar tuzish, aytib berish, dramatizatsiya qilish orqali psixoterapiya. Ertak bolaning qo'rquvini samarali yengishga o'rgatadi. Bu usullar nafaqat xulqi og'ir bolalar uchun, balki barcha o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun xizmat qiladi. Terapiyaning juda ko'p turlari mavjud bo'lib, yuqorida aynan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos bo'lganlari keltirib o'tildi va ular quyidagi vaziyatlar uchun foydali:

O'zini yolg'iz his qilish; Asabiylik va kayfiyatni tez o'zgarishi;

O'smirlik davridagi o'zgarishlar;

Depressiyaga moyillik;

Yashirin qo'rquvlar;

Past samootsenka(o'ziga bo'lgan past baho).

Hozirgi kunda kreativ fikrlashni oshirish va ijodiy qobiliyatni rivojlantirish uchun art-terapiyadan keng ko'lamda foydalanmoqda. Jumladan, art-terapiya histuyg'ularni erkin ifoda etishga, rasm chizish orqali hayoloti bilan yuzlashishga undaydi desam adashmagan bo'laman. Shu bois psixologlar insonlar haqida ma'lumotga ega bo'lish, ularning kayfiyatini, dunyoqarashini bilish uchun ham rasm chizdirishdan ya'ni art-terapiyadan foydalanadi. O'zbekistondagi maktablarda ham aynan boshlang'ich sinflar uchun artterapiyadan foydalanishadi. Faqat bu Yevropa mamlakatlaridan farq qiladi. ya'ni Yevropa maktablarida asosan boshlang'ich sinfdan boshlab rangli





bo'yoqlar bilan ishlanadi. Bu esa o'quvchilarning ijodiy ishlarini chegarasiz holda ifoda etish mumkinligiga zamin yaratadi.

O'zbekistondagi boshlang'ich sinf rasm darslarida asosan rangli qalamlardan foydalaniladi. Rangli bo'yoqlardan foydalanib rasm chizish qalamlarga qaraganda qiyinroq bo'lib, qalamlarda o'quvchilar ehtiyotkorlikni unutgan holda ijod qiladi, ya'ni qalamda ishlangan ijodiy ishda chegara mavjud bo'lib, estetik jihatdan kamchiliklar bo'yoq bilan ishlangan ijodiy ishga nisbatan ancha kam bo'ladi. Shu bois o'quvchilar aniq bir suratni ifodalashga harakat qiladilar va hayolotidagi suratlarni nazardan chetda qoldiradilar. Aslida bo'yoqlar bilan ishlash uchun har bir bola o'zini erkin tutgan holda bo'yoqlar yordamida o'z ijodiy ishlariga o'zgacha uyg'unlikdagi rang-baranglikni aks ettirishi mumkin va ular bo'yoqlar bilan ishlash orqali estetik didga ega bo'ladilar. [4]

Xulosa. Ertaklar orqali tarbiya berish jarayonini kreativ yondashuv bilan boyitish o'quvchilarning tafakkurini har tomonlama rivojlantirishda samarali pedagogik model hisoblanadi. Ertaklardagi obrazlar, syujetlar va ramziy ma'nolar bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish bilan birga ularning ijodiy tasavvuri, mantiqiy fikrlashi va noodatiy yechimlar topish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Kreativ metodlar – muqobil yakun yaratish, rolli o'yinlar, vizual tasvirlar, muammoli vaziyatlar, dramatizatsiya va kognitiv o'yinlar orqali ertak mazmuni yanada jonlanadi va o'quvchini faol ishtirokchi sifatida jarayonga jalb qiladi.

Shu tariqa, ertaklar asosida kreativlikni rivojlantirish integratsiyasi ta'lim jarayonida ikki tomonlama natija beradi: bir tomondan, o'quvchilarda badiiy-estetik va axloqiy tarbiya kuchayadi, ikkinchi tomondan esa ijodiy fikrlash, tasavvur kengligi va kommunikativ kompetensiyalar shakllanadi. Bunday yondashuv boshlang'ich yoshdagi bolalarda motivatsiyani oshirib, ta'limning mazmunini qiziqarli, mazmunli va samarali qiladi. Natijada, ertaklardan foydalanish faqat tarbiyaviy vosita emas, balki kreativ o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi sifatida o'z qiymatini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.X.Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" Toshkent-2017
2. Yo'ldoshev A. Boshlang'ich ta'limda ertaklardan foydalanishning metodik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Xusanova Sadoqat. ZAMONAVIY TA'LIMDA ERTAKLARNING O'RNI- Kokand University xabarnomasi 2023
4. S.K.Tog'ayeva. BOSHLANG'ICH SINFLARDA ART TEXNOLOGIYA VA KREATIVLIKDAN FOYDALANISH CHET EL MAMLAKATLARI VA O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMI MIQYOSIDA.- Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA. Date: 1 st May - 2024

